



2020-yil yanvar oyida Farg`ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar oyida viloyat korxonalarini tomonidan 1 775,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 103,0 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksining asosiy omili bo'lib, tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 123,0 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat – 100,7% ga, elektr va gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 150,0 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 134,1 % ga o'sishi hisoblanadi.

RAQAMLAR:

Sanoat ishlab chiqarish hajmi 1775,5 mlrd.so`mni, sanoat ishlab chiqarish indeksi 103,0% ni tashkil etdi


Iste`mol tovarlari ishlab chiqarishning o`shish sur`ati –10,8 %

Iste`mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi – 25,5 %

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – 38,8 %

Faoliyat ko`rsatayotgan sanoat korxonalarini soni-7706 birlikni tashkil etdi.

2020-yilning yanvar oyida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda, jami sanoatdagi ulushi



Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.



Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,2 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida tog`-kon sanoati bilan bog`liq boshqa faoliyat turi hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajmi indeksi - 122,5 % ni tashkil qildi.




Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2020-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1667,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 93,9 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining hajmi - 1,9 mlrd.so'mni (ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-0,1%), o'rta yuqori texnologiyali - 164,9 mlrd.so'mni (9,3 %), o'rta quyi texnologiyali - 619,4 mlrd.so'mni (34,9%) va quyi texnologiyali - 880,7 mlrd.so'mni,(49,6%) tashkil etdi.

Yanvar oyida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi











O'z navbatida, sanoatning mazkur tarmog'ida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, jami ishlab chiqarilgan sanoat hajmidagi ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,1 % ga, mebel ishlab chiqarish 0,1 % ga, teri va unga tegishli mahsulotlarni ishlab chiqarish 1,3 % ga, yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari) ishlab chiqarish 1,8% ga, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish 0,3 % ga oshganligini, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish esa 4,2 % ga, boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish 0,2 % ga, kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish 5,2 % ga pasayganligini kuzatish mumkin.

2020-yil yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2019-yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2020-yilda ishlab chiqarilgan	O`shish sur`ati, foizda
13534,0	<p>Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna</p> 	15381,2	113,6 ↑
1831,0	<p>O'simlik yog'i, tonna</p> 	3576,3	195,3 ↑



davomi

2019-yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2020-yilda ishlab chiqarilgan	O`shish sur`ati, foizda
53436,0	Sement klinkerlari, tonna 	14431,0	27,0 ↓
0,4	Natriy nitrat, ming tonna. 	0,2	56,0 ↓
15,5	Amoniy nitrat, ming t. azot 	6,5	42,1 ↓
1,9	Superfosfat ming P2O5 tonna. 	0,4	20,1 ↓
62010	Portlandsement, tonna 	17459	28,2 ↓
41,6	Suvsiz ammiak, ming tonna. 	19,1	45,9 ↓

Elektr, gaz, bug` bilan ta`minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta`minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 95,5 mlrd. so`mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,4 % ni) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar oyida sanoatning mazkur tarmog'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajmi indeksi 150,0 % ni tashkil etdi.



Suv bilan ta`minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7,8 mlrd.so`mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar oyida sanoatning mazkur tarmog'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajmi indeksi 134,1 % ni tashkil etdi.



2020-yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 452,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan 10,8 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 25,5 % ni tashkil etdi.

2020-yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari (%)






davomi

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Farg'ona shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 41,8 % ulushini), Qo`qon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 12,8% ulushini), Quvasoy shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 4,5% ulushini), Marg`ilon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 4,0% ulushini), Toshloq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 11,0 % ulushini), Quva tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 4,0% ulushini), Dang`ara tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 3,8% ulushini), O`zbekiston tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,2 % ulushini), Buvayda tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,0% ulushini), Beshariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,1% ulushini), Bag`dod tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,1% ulushini), Oltiariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,0% ulushini), Farg`ona tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,3% ulushini), Rishton tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,8% ulushini), Uchko`prik tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,2% ulushini), Qo`shtepa tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,1 % ulushini), Yozyovon tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,2% ulushini), So`x tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 0,5% ulushini), Furqat tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 0,6% ulushini) xissasiga to`g`ri kelmoqda.


2020-yilning yanvar oyida hududlar bo`yicha sanoat ishlab chiqarilishining ulushi, foizda





davomi


2020-yilning yanvar oyida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarilishining hajmlari va viloyatdagi ulushi, %



Hududlarning iste`mol tovarlari ishlab chiqarishi

Viloyat iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Farg`ona shahar 78,5 mlrd. so`m, Qo`qon shahar 95,2 mlrd. so`m, Quvasoy shahar 23,9 mlrd. so`m, Marg`ilon shahar 35,7 mlrd. so`m, Toshloq tumani 24,2 mlrd. so`m, Dang`ara tumani 14,7 mlrd. so`m, O`zbekiston tumani 18,9 mlrd. so`m, Quva tumani 17,0 mlrd. so`m, Buvayda tumani 10,5 mlrd. so`m, Beshariq tumani 20,6 mlrd. so`m, Bog`dod tumani 19,2 mlrd. so`m, Oltiariq tumanlari 17,1 mlrd. so`m, Farg`ona tumani 13,5 mlrd. so`m, Rishton tumani 18,8 mlrd. so`m, Yozyovon tumani 8,6 mlrd. so`m, Qo`shtepa tumani 10,8 mlrd. so`m, So`x tumani 4,3 mlrd. so`m, Uchko`prik tumani 15,9 mlrd. so`m, Furqat tumani 5,0 mlrd. so`mga, to`g`ri keldi.

Shahar va tumanlarning iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va ulushi, %





davomi


Farg`ona viloyatining 2020-yilning yanvar oyida sanoat mahsulotlari hamda xalq iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi

№	Shaharlar va tumanlar nomi	2020-yil yanvar chiqarilishi		2020-yil yanvar aholi jon boshiga	2020-yil yanvar xalq iste`mol tovarlari		2020-yil yanvar aholi jon boshiga
		mlrd.so`m	ulushi, %	ming.so`m	mlrd.so`m	ulushi, %	ming.so`m
1	Oltiariq t.	35,4	2,0	169,7	17,1	3,8	82,0
2	Qo`shtepa t.	19,4	1,1	103,5	10,8	2,4	57,6
3	Bog`dod t.	37,5	2,1	176,8	19,2	4,2	90,5
4	Buvayda t.	35,3	2,0	157,2	10,5	2,3	46,8
5	Beshariq t.	37,3	2,1	165,6	20,6	4,5	91,5
6	Quva t.	71,5	4,0	280,6	17,0	3,8	66,7
7	Uchko`prik t.	20,6	1,2	91,5	15,9	3,5	70,6
8	Rishton t.	32,9	1,8	165,2	18,8	4,1	94,4
9	So`x t.	9,1	0,5	118,3	4,3	1,0	55,9
10	Toshloq t.	195,1	11,0	979,9	24,2	5,3	121,5
11	O`zbekiston t.	38,9	2,2	165,2	18,9	4,2	80,3
12	Farg`ona t.	23,5	1,3	111,9	13,5	3,0	64,3
13	Dang`ara t.	67,4	3,8	394,2	14,7	3,2	86,0
14	Furqat t.	10,4	0,6	89,3	5,0	1,1	43,0
15	Yozyovon t.	21,4	1,2	196,5	8,6	1,9	79,0
16	Farg`ona sh.	741,8	41,8	2590,1	78,5	17,4	274,1
17	Qo`qon sh.	226,9	12,8	905,1	95,2	21,1	379,7
18	Quvasoy sh.	80,1	4,5	865,9	23,9	5,3	258,4
19	Marg`ilon sh.	71,0	4,0	304,7	35,7	7,9	153,2
Viloyat bo`yicha		1 775,5	100,0	477,6	452,2	100,0	121,6

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning xissasi

Kichik tadbirkorlik subyektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 38,8% tashkil etmoqda.

2020-yilning yanvar oyida hududlar bo`yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %






davomi

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonolari

Bugungi kunda viloyatda 7706 ta sanoat korxonolari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1359 tasi Qo`qon shahri, 968 tasi Farg`ona shahri, 911 tasi Marg`ilon shahri, 207 tasi Quvasoy shahri, 558 tasi Uchko`prik tumani, 456 tasi O`zbekiston tumani, 396 tasi Dang`ara tumani, 395 tasi Buvayda tumani, 335 tasi Quva tumani, 289 tasi Toshloq tumani, 278 tasi Oltiariq tumani, 265 tasi Bog`dod tumani, 242 tasi Rishton tumani, 223 tasi Qo`shtepa tumani, 220 tasi Farg`ona tumani, 158 tasi Furqat tumani, 155 tasi Yozyovon tumani, 151 tasi Beshariq tumani, 140 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

Joriy yilning yanvar oyida viloyatda 100 ta yangi sanoat korxonolari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 10 tasi Farg`ona shahri, 17 tasi Qo`qon shahri, 9 tasi Marg`ilon shahri, 5 tasi Quvasoy shahri, 4 tasi Quva tumani, 7 tasi Uchko`prik tumani, 4 tasi Buvayda tumani, 3 tasi O`zbekiston tumani, 6 tasi Oltiariq tumani, 4 tasi Rishton tumani, 3 tasi Dang`ara tumani, 2 tasi Farg`ona tumani, 3 tasi Bog`dod tumani, 4 tasi Toshloq tumani, 3 tasi Qo`shtepa tumani, 8 tasi Beshariq tumani, 6 tasi Yozyovon tumani, 2 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

Farg`ona viloyatida faoliyat ko`rsatayotgan hamda 2020- yil yanvar oyi davomida yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda



**Farg`ona viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo`limi**

Nashr uchun mas'ul:

Aloqa telefoni:

Sh.Zokirov

(0371) 230-87-19